

NAVRO'Z-QADIMIY AN'ANALAR VA MILLIY MEROS UYG'UNLIGI

Rasulova Mohichehra Maston qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası o’qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15070352>

Annotatsiya. Bahor fasli turli-tuman bayram va marosimlarga to’la palla hisoblanib, bu davrlardagi marosimlarda o’zbeklarning tabiat bilan bog’liq qadimiy falsafiy qarashlari o’zini yaqqol namoyon etadi, shu sababli bunday urf-odat va marosimlar doimo tadqiqotchilarning diqqat-e’tiborini o’ziga jalb etib kelgan. Quyidagi maqolada bahor ayyomi hisoblanmish “Navro’z” bayramining paydo bo’lishi va u bilan bo’g’liq urf-odat, qadriyatlarni tarixiy-etnografik ma’lumotlarga asoslangan holda bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Navro’z, zardushtiylik, Navsard, sumalak, halim, halisa, ilik uzildi, muchal, qozon to’ldi, “qizil gul” sayli, hashar.

NAVRUZ - THE HARMONY OF ANCIENT TRADITIONS AND NATIONAL HERITAGE

Abstract. The spring season is considered a time full of various holidays and ceremonies, and the ancient philosophical views of the Uzbeks regarding nature are clearly manifested in the ceremonies of these times, therefore such traditions and ceremonies have always attracted the attention of researchers. The following article describes the emergence of the spring holiday "Navruz" and the traditions and values associated with it based on historical and ethnographic data.

Keywords: Navruz, Zoroastrianism, Navsard, sumalak, halim, khalisa, ilik uzildi, muchal, qazan toldi, "kizil gul" sayli, hashar.

НАВРУЗ – ГАРМОНИЯ ДРЕВНИХ ТРАДИЦИЙ И НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ

Аннотация. Весенний сезон считается временем, насыщенным различными праздниками и обрядами, а обряды этих периодов ярко отражают древние философские воззрения узбеков относительно природы, поэтому подобные обычаи и обряды всегда привлекали внимание исследователей. В статье на основе исторических и этнографических данных описывается возникновение весеннего праздника «Навруз», а также связанные с ним традиции и ценности.

Ключевые слова: Навруз, зороастризм, Навсард, сумалаяк, халим, халиса, костный мозг был разрезан, мучал, горшок был полон, песня «красный цветок», хашар.

An'anaviy bayramlar qadimdan odamlar hayotida katta o'ringa ega bo'lgan va barchaga o'gacha qiziqish uyg'otib kelgan. An'anaviy bayramlar bugungi kunda ham o'ta dolzarbligini saqlab qolgan, unda xalqning bosib o'tgan yo'li, o'tmishi, kelajakka bo'lgan umidi, ajdodlardan qolgan qadriyatlari o'z aksini topgan bo'lib, insoniyat madaniyatining boshlang'ich shakli desak adashmagn bo'lamiz. Ular qadimda kishilarning Ona tabiatga bo'lgan munosabatlarini aks ettirib, ularning diniy va mifologik e'tiqodlarini ifodalagan bo'lsa, hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ulkan ma'naviy ko'zgudir. Ularni tadqiq va tahlil etish davomida o'zbek xalqining an'anaviy bayramlari bilan bog'liq ma'lumotlar turli davrlarda yashagan olimlarning asar va tadqiqotlarida bayon etilganligiga amin bo'lamiz.

Sharq xalqlarining mushtarak ijodi – Navro'z uzoq moziydan bugunga qadar yetib kelgan muqaddas qadriyatlardan biri, baynalminal bayramdir. Bashariyat tarixida Navro'zdan qadimiyroq bayramni topish qiyin. Hozirda ham katta tantanalar bilan nishonlanuvchi ulug' bayram – Navro'z sharq xalqlari orasida makon va zamon haqidagi dastlabki tasavvurlar paydo bo'lgan zamonlardan boshlab shakllangan. O'sha davr qarashlariga ko'ra, yil qish va yozdan iborat bo'lib, uzoq davom etgan sovuq va ochlikdan so'ng issiq kunlarning boshlanishi o'zgacha kayfiyatda, katta tantanalar bilan kutib olingan hamda bayram qilingan. Zardushtiylikning barcha marosimlari, jumladan, Navro'z, Mehrjon bayramlarida ona zaminga, dehqonchilik, chorvachilik va vatanga bo'lgan muhabbat ruhi, ayniqsa, ulkan qudrat bilan yaqqol ko'rinadi¹.

Navro'zning kelib chiqishi haqida ko'plab rivoyatlar va afsonalar mavjud. Jumladan, zardushtiylar davridagi ba'zi bir tushunchalarga qaraganda, ezgulik ilohi Ahuramazda bahor-yozda, yomonlik ilohi Ahriman kuzda va qishda hukmdorlik qilar emish. Bahorning birinchi kunini yaxshilik xudosi yomonlik xudosi ustidan g'alaba qozongan muqaddas sana deb uni bayram qilishgan. Boshqa qadimiy afsonaga qaraganda, Odam Ato va Momo Havo uchrashgan kun "Navro'z bayrami" deb tan olingan emish.²

O'rta asr yozma manbalarida sharq xalqlarining tarixi, madaniyati, turmush tarzi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar, marosimlari o'zida aks ettirilgan. Jumladan buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli tarixiy-etnografik asari alohida e'tiborga sazovordir. Ushbu asarda islomgacha bo'lgan davrdagi xorazmliklar, so'g'diylar, eronliklarning hayitlari - bayramlar tog'risidagi o'ta muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Ayniqsa, allomaning Navro'z, Mehrjon, "Uzum bayrami" yil taqvimi bilan bog'liq bayram va marosimlari to'g'risidagi ma'lumotlari hozirgi zamon uchun ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur bayramlarning barchasida tabiatda yuz beradigan turli-tuman o'zgarishlar aks etgan.

¹ Ashirov A. Avestodan qolgan marosimlar. T. 2011.12-bet

² Ashirov A. Avestodan qolgan marosimlar. T. 2011.12-bet

Sharq mamlakatlari hayotida muhim o'rin tutgan hamda tadqiqotchilar tomonidan turli tarixiy davrlarda keng ko'lamda o'rganilgan va turlicha talqin qilingan Navro'z bayramida o'zbeklarning asrlar davomida shakllanib kelgan falsafiy, tarixiy va milliy qarashlari namoyon bo'ladi³. Hozirda ham katta tantanalar bilan nishonlanuvchi ulug' bayram – Navro'z sharq xalqlari orasida makon va zamon haqidagi dastlabki tasavvurlar paydo bo'lgan zamonlardan boshlab shakllangan. Shu o'rinda Navro'z bayrami haqidagi o'rta asrlar yozma manbalariga yuzlanadigan bo'lsak, bu bayramning ildizi uzoq o'tmishga borib taqalishi va navro'z bayramining paydo bo'lishi to'g'risida turli afsona va rivoyatlarni bilib olamiz. Yuqorida aytilgan nomi zikr etilgan qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida keltirilishicha: “Navsard. Bu oyning birinchi kuni (so'g'diylar) navro'zi bo'lib, bu katta navro'z.” ya'ni, Markaziy Osiyo aholisi ham amal qilgan quyosh taqvimi bo'yicha bahorgi teng kunlik (21-mart)dan boshlangan yangi yil bayrami - Yilboshi (so'g'diylarda - Navsard, xorazmliklarda - Novsor-ji), Navro'z {Nav - Yangi, ro'z - kun) nomlari bilan aytilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, bu bayram so'g'diylar yashagan davr miloddan avvalgi 1-mingyilliklar paydo bo'lgan degan mulohazani beradi.

O'rta asrning mashhur muarrixlaridan biri Muxammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” nomli asarida ham Navro'z bayrami va olov bilan bog'liq marosimlar o'tkazilganligi qayd qilingan. “Siyovush ibn Kaykovus o'z otasidan qochib Jayhun darosidan o'tib Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o'z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o'ziga vaqtincha berib qo'yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi Shunday qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko'proq vaqt o'sha joyda turar edi. (Kimlardir) u bilan Afrosiyob o'rtasida yomon gap yurgizdi va (natijada) Afrosiyob uni o'ldirdi hamda ana shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishda «Darvozayi g'uriyon» deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o'sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili navro'z kuni quyosh chiqishidan oldin o'sha joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo'shiq qilib aytadilar.

Qo'shiqchilar uni «otashparastlar yig'isi» deyilar. Bu gaplar bo'lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi”⁴ bu ma'lumotga asoslanib Narshaxiy yashagan davrni hisobga oladigan bo'lsak, Navro'z ayyomi 3,5- 4 mingyillik tarixga ega ekanligini guvoh bo'lamiz.

Beruniyning “qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar asarida esa “Navro'zni hayit qilish to'g'risida bunday ham deyilgan.

³ Isoqov B. An'analarni abadiyatga aylantirgan ayyom. Namangan. 2013. 15-bet

⁴ Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. 15-bet

“Jamshid arava yasab olgach, o’sha kuni aravaga chiqdi, jinlar va shaytonlar uni havoga ko’tarib, bir kunda Dunbovanddan Bobilga olib bordilar. Odamlar bu ajoyib voqeani ko’rgach, o’sha kunni hayit qildilar va Jamshidning (aravada uchishiga) taqlid qilib arg’imchoqlarda uchdilar.

Ba’zilarning gumonida, Jamshid shaharlarni aylanib yurishni yaxshi ko’rar edi. U Ozarbayjonda bo’lishni istab, tilladan yasalgan taxtga o’tirdi va odamlar taxtni yelkalariga ko’tardilar. Jamshidga Quyosh nuri tushdi, odamlar uni ko’rgach, ulug’ladilar va shodlanib o’sha kunni hayitga aylantirdilar”⁵ deb qayd etilgan.

Umar Xayyomning “Navro’znoma” asarida esa “Navro’zning joriy qilinishini sababini aytsak, u shundan iboratki, u oftobning ikki aylanishi mavjud, ulardan biri quyidagicha: Oftob har uch yuz oltmish besh kunu kecha-kunduzning to’rtidan birida Hamal burjining birinchi daqiqasiga chiqib ketgan paytining o’zida yana qaytib keladi va har yili bu davr kamaya boradi.

Jamshid bu kunni tushungandandan keyin Navro’z deb atadi va bayram qilishni odatga aylantirdi.”⁶ Bunda koinot va tabiat qonuniyatlari nuqtayi nazaridan yondashilganligi haqida bilib olamiz.

Bugungi kunda Navro’z bayrami bundan 3,5—4 ming yil burun bizning o’lkamizda paydo bo’lganligi ilmiy nuqtai nazardan isbotlangan. “Navro’z”ning yuzaga kelishi har tomonlama ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya’ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning har jihatidan barobarlashishi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi, bahorning kelishi bilan bog’liqdir. Qolaversa, zardushtiylarda boychechakning chiqishi, lolaqizg’aldoqlarning ochilishi, bodomning gullashi, umuman bahor bilan tabiatning go’zallashib borishi — ezgulik ruhining tantanasi bilan ularning har biri katta shodiyonalarga sabab bo’lgan⁷.

Navro’z azaldan katta tayyorgarlik bilan kutib olingan. Har yil bayram arafasida hovli-joylar tozalanib, mahalla-ko’ylarda hashar yo’li bilan ko’cha va xiyobonlarni supurib-sidirish, ariq-zovurlarni tozalash, turli-tuman meva va tok ko’chatlari ekish odat tusiga kirgan. Bu bayramda kattalar ham, bolalar ham o’zgacha bir zavq, shodonlik bilan kutib olib, nishonlaydi.

Umar Xayyom o’z «Navro’znoma»sida yozganiday: «Kimki Navro’z kuni bayram qilsa va quvonsa, yanagi Navro’zgacha ana shunday yayrab, farog’atda yashaydi”, — degan aqidaga asrlar davomida amal qilinib, turlicha udumlar yaratilgan va ular xalq ongiga singib qolgan

Bahor ayyomi bo’lgan Navro’z bayrami bilan bog’liq asrlar davomida saqlangan shunday urf-odat, qadriyatlarimiz borki, ulardan ayrimlari haqida so’z yuritamiz.

⁵ Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 256-bet

⁶ Umar Xayyom. Navro’znoma. 11-bet

⁷ Ashirov A. Avestodan qolgan marosimlar. Toshkent. 2011. 12-bet

Bahor kirib kelishi bilan Buxoroda “Guligardoni bulbulxon”, “Guli surx”, Zarafshonda “Boychechak guligardoni” sayllar o’tkazib kelingan. Jumladan, Buxoroda o’tkaziladigan “Qizil gul” sayli xalqimizning yilboshi-Navro’z bayrami bilan bog’liq mavsumiy marosimlari tizimining an’anaviy uzvlaridan biridir. U tabiatning ko’klamgi uyg’onishi, yangi mehnat yilining boshlanishi, hosildorlik va baraka tilash tantanasi sifatida o’tkazib kelingan. Bu saylning qadimiy asoslari yovuzlik kuchlari zimiston qa’riga chekinib, ezgulik tantana qiladigan kuni sifatida bayram qilish an’anasi bilan bevosita aloqadordir⁸.

Navro’z ayyomi bilan bog’liq turli voqea-hodisalar, ularning talqinlari juda ko’p bo’lib, barchasi insonlarning o’zaro do’stona, tinch- totuv va osoyishta yashashlari, obodonchilik, mo’l-ko’lchilik yo’lida mehnat qilishlari, tabiat va jamiyatdagi yangilanishlardan xayratlanib va quvonib, shodon turmush kechirishlariga, bir-birlariga yaxshilik istab yashashlariga chorlaydi.

Aynan shunday g’oya Umar Xayyomning «Navro’znoma» asarida ham o’z aksini topgan: «Podshohlarning bir odati bor: yil boshida ular yaxshilikka fatvo berish va sanalarni belgilash hamda maishat uchun ma’lum marosimlar o’tkazishi zarur. Kimki Navro’z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro’zgacha xurram bo’ladi va farog’atda yashaydi. Podshohlar uchun bu odatni olimlar belgilab berishgan»⁹.

Navro’z kunlari yurtimiz shahar va qishloqlarida muchal marosimi ham o’tkaziladi.

Navro’z kirishi bilan yangi yil qaysi jonivorning nomi bilan atalishiga qarab, odamlar o’z muchalini marosim sifatida nishonlashga odatlanishgan. Ushbu marosimni ba’zi tadqiqotchilarimiz 12 yoshni to’ldirib, 13 yoshga qadam qo’yan yigit va qizlarimizni alqovchi marosim deyishsa, boshqalari esa muchal yoshi nafaqat 13 yoshda, balki 25, 37, 49, 61, 73, 85 yoshlarda ham maxsus nishonlanilgan oilaviy tadbir deb ta’kidlaydi.¹⁰ Buxoroda bu marosimni «mo’ljar» yoki «mo’ljardaroyon» deb atashadi. O’tmishda bola muchali qaysi yilga to’g’ri kelsa, fe’li ham o’shanga mos bo’ladi, degan aqidaga ishonganlar. Marosim uchun qizga ham, o’g’il bolaga ham boshdan-oyoq, yangi oq, sarpo qilish an’anaga aylangan. Bu bilan muchali nishonlanayotgan o’g’il va qiz kelajagining porloq, va baxtli bo’lishi istalgan.¹¹

Xalqimizning qadimiy udumiga binoan, navro’z bayrami hut oyining oxirgi kechasi, ya’ni 20 martdan 21 martga o’tar kechasi oila davrasida o’tkaziladigan qozon to’ldi an’anasi bilan boshlangan. Bunda har bir oilada o’z imkoniyatidan kelib chiqqan kelib chiqqan holda tansiq taom (ko’pincha, palov), ko’k somsa, bo’g’irsoq pishiriladi va ovqat pishirilayotganda

⁸ <https://etnotravel.uz/maqola/qizil-gul>

⁹ Isoqov B. An’analarni abadiyatga aylantirgan ayyom. Namangan. 2013. 25-bet

¹⁰ Qurbonova M. Muchal buxoroliklarning taqvimiy, qadri marosimi. //Islom tafakkuri ilmiy-ma’rifiy jurnal.2020. 49-52-betlar

¹¹ Oxunjon Safarov, Mels Mahmudov . Oila ma’naviyati. 2009.161-162-betlar

qozonning to'la bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, o'tgan ajdodlar haqqiga "is" chiqaradilar.

"Qozon to'ldi" oqshomida tayyorlangan taomlar va pishiriqlar qo'ni –qo'shilarga, qarindosh-urug'larga ham ulashilgan. Bu orqali bu ayyom insonlar o'rtasida mehr-oqibat, yaqinlarga g'amxo'rlik, saxovat rishtalarini bog'lashga xizmat qiladi.

Navro'z deganimizda barchaning ko'z oldida uning laziz taomi - sumalak jonlanadi. «Sumalak sayli» (yoki «Sumalak bazmi») Navro'zning «shohona taomi» - sumalak tayyorlash, sumalakxo'rlikka bag'ishlangan marosimdir. Ba'zi tadqiqotchilar «Sumalak» kalimasini «sharbat uchun undirilgan arpa» yoki bug'doy ma'nolarini anglatuvchi qadimiy turkiy so'z «suma»dan kelib chiqqan deb ta'kidlashadi.

Xalq e'tiqodiga ko'ra, sumalak taomini birinchi Bibi Fotima tomonidan pishirilgan deyiladi. Bibi Fotimaning bu muqaddas oshi o'zgacha mehr, o'zgacha ahillik, o'zgacha hamjihatlik asosida tayyorlangan va bu hodisa asrlar osha davom etib kelayotgan an'anaga aylangan. Folklorshunos olim M.Jo'rayevning aniqlashicha, «hatto milodning I—II asrlarida yashab o'tgan mashhur yunon olimi Plutarx midiyaliklarning bahoriy udumlari to'g'risida yozarkan, ular ilk ko'klamda bug'doydan maxsus taom pishirganlarini alohida qayd qilib o'tgan.

O'rta Osiyoda istiqomat qilgan ajdodlarimiz ham bundan ming yillar muqaddam ko'klamni sumalak pishirish bilan kutib olganliklarini XI asrning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariy ham ta'kidlagan edi.

Xalq orasida yurgan yana ba'zi rivoyatlar borki, ularda xalqimizning yashash tarzi, tabiat bilan hamohang qarashlar aks etgan. Shulardan birini keltirib o'tamiz. Dehqon urug'likka olib qo'ygan donini erta bahorda tezroq ekish niyatida hammadan oldin suvga ivitib qo'yadi.

Lekin, beqaror ob-havo birdan buzilib, qor yog'a boshlaydi. Bug'doy bo'lsa ivitilgan idishda nish urib o'sishda davom etavergan. Oila a'zolari tomonidan «ilik uzildi»¹² davriga zo'rg'a yetib kelingan paytda bug'doyni butunlay nobud bo'lishiga yo'l qo'ymaslik choralari qidiriladi. Dehqon bo'lsa tavakkal qilib, nish urgan va ancha bo'y ko'targan bug'doy maysalarini qiymalaydi hamda uy bekasidan bundan taom pishirishini aytadi. Beka maysa qiymasini qozonga solib, uzoq vaqt qaynatadi. Hidi yoqimli, o'zi to'yimli, mazasi esa tanovul qilgan kishining uzoq vaqt esida qoladigan darajadagi yangi taom dunyoga keladi. Natijada, ularda kelgusi yil ko'klamida ham yana shunday taomdan bahramand bo'lish ishtiyoqi tug'iladi.

Ushbu taom esa el orasida keng tarqalib, bahorning eng laziz taomiga aylanadi.¹³

¹² Odamlarda ko'pincha qish oxiriga borib holsizlik, darmonsizlik seziladi. Hozirgi zamon ifodasi bilan aytganda, vitaminlarga kuchli ehtiyoj paydo bo'lib, ko'katlar va ho'l mevalarga zarurat seziladi. Bunday holat xalq orasida «ilik uzildi» payti deb ham ataladi.

¹³ Isoqov B. An'analarni abadiyatga aylantirgan ayyom. Namangan. 2013. 35-36-betlar

Bundan tashqari Buxoroda Navro'z sayllarida halim¹⁴, kabob, halisa¹⁵, kabi tansiq taomlar ham pishirilganki, bu o'z navbatida, Buxoro pazandaligida mavjud barcha taomlarni sifatli tayyorlashning o'ziga xos ko'rigiga aylangan. Aytaylik, faqat palovning qobili, ko'kapalov, sofipalov, chalov, xazipalov, xomtokpalov, xaltapalov, no'xatpalov, moshpalov, so'kpalov, bug'doypalov, jo'xoripalov, qovurmapalov, kishmishpalov, bedanapalov, kaklikpalov, tovuqqalov, sitorapalov, qozpalov, turshakpalov, dovchapalov singari yuzdan ziyod turi tayyorlangan.

Xulosa qilib aytganda, asrlarosh o'zbek xalqi an'anaviy bayramlarining eng uzoq tarixga ega bo'lgan Navro'z qadimiy va diniy odatlar o'zida mujassam etib, ular odamlar o'rtasida mehr-oqibat, izzat-hurmat, qadr-qimmat, muruvvat kabi insoniy fazilatlarining ravnaq topishiga katta xizmat qilib kelgan. Shuningdek, insonparvarlikni barqaror etuvchi va aholining ma'naviy kamol topishiga xizmat qiladigan muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

REFERENCES

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlar qolgan yodgorliklar. Toshkent, 1968
2. Umar Xayyom. Navro'znoma. Toshkent. 1990
3. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi.
4. Qurbonova M. Muchal buxoroliklarning taqvimiy, qadrli marosimi. //Islom tafakkuri ilmiy-ma'rifiy jurnal.2020
5. Isoqov B. An'analarni abadiyatga aylantirgan ayyom. Namangan. 2013
6. Oxunjon Safarov, Mels Mahmudov . Oila ma'naviyati. Toshkent. 2009.
7. A.Ashirov . Avestodan qolgan marosimlar. Toshkent. 2011
8. <https://etnotravel.uz/maqola/qizil-gul>
9. Rasulova, M. (2024). O'ZBEK XALQLARI FOYDALANGAN TAQVIMLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 949–954. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58527>
10. Rasulova, M. (2025). MINORAI KALON. *Modern Science and Research*, 4(1), 979–984. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64066>

¹⁴ Buxoroda halim bug'doy yormasining sutda qaynatmasi asosida tayyorlanuvchi alohida xushxo'r taom.Bunga go'sht solinmaydi. (Oxunjon Safarov, Mels Mahmudov . Oila ma'naviyati. 2009. 155-bet)

¹⁵ Halisa O'zbekistonning ko'p joylarida tayyorlanadi.U ham bug'doy yormasining go'sht bilan qaynatmasidir asidir. Boshqa joylarda uni halim deyish an'anaga aylangan. (Oxunjon Safarov, Mels Mahmudov . Oila ma'naviyati .2009. 155-bet)

11. Rasulova, M. (2025). ISMOIL SOMONIY MAQBARASI. *Modern Science and Research*, 4(2), 1422–1428. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/68662>.
12. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
13. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
14. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
15. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
16. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
17. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
18. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV–O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
19. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
20. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
21. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
22. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
23. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655-659.
24. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
25. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.

26. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. International Journal Of History And Political Sciences, 3(11), 17-23.
27. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". Modern Science and Research, 2(9), 404-409.
28. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. Modern Science and Research, 2(10), 291-299.
29. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. Modern Science and Research, 2(9), 84-89.
30. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 3(1), 12-16.
31. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. Scholar, 1(28), 395-401.
32. Toshpo'latova, S., & Hoshimova, M. (2025). BERUNIY VA UNING DIDAKTIK QARASHLARI. Modern Science and Research, 4(1), 344-351.
33. Toshpo'latova, S. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. Modern Science and Research, 3(12), 643-651.
34. Muyiddinov, B., Toshpo'latova, S., & Gadayeva, M. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA KUTUBXONACHILIK, HUJJATCHILIK VA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOSLIGI. Modern Science and Research, 4(2), 97-105.
35. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Muyiddinov, B. (2025). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TARKIB TOPTIRISH MODEL. Modern Science and Research, 4(2), 106-116.
36. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Muyiddinov, B. (2025). TARIX DARSLARINI OQITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. Modern Science and Research, 4(2), 87-96.
37. Yuldosheva, F. (2024). MIRZO ULUG'BEK KUTUBXONASI VA BUGUNGI TAQDIRI. Modern Science and Research, 3(12), 741-749. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/-research/article/view/58564>

38. Yuldosheva F. (2024). BOLA TUG'ILISHI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR O'ZBEK XALQI HAYOTINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 3(11), 788–791. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48058>
39. Yuldosheva F. Y. qizi. (2023). LEV NIKOLAYEVICH GUMILYOVNING “QADIMGI TURKLAR” ASARIDA KO'KTURKLAR YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *GOLDEN BRAIN*, 1(16), 338–342. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/article/view/3908>
40. Yuldosheva F. (2025). MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – MILLATNING O'Z TAQDIRINI ANGLASHIDA YORQIN YULDUZ VA MILLIY UYG'ONISH DAVRINING RAMZI. *Modern Science and Research*, 4(1), 420–427. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scienceresearch/article/view/60832>
41. Yuldosheva, F. .& Abdihamidova F. (2025). BEHBUDIYNI KIM O'LDIRGAN?. *Modern Science and Research*, 4(1), 359–366. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63681>
42. Yuldosheva, F. (2025). IBN BATTUTANING “SAYOHATNOMA” ASARI MUHIM MANBA SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 4(2), 573–580. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scienceresearch/article/view/66954>
43. Yarashova, M., Yuldosheva, F., & Haqqulov, M. (2025). TA'LIM Olish TARTIBI: YANGILANISH VA O'ZGARISHLAR. MASOFAVIY, DUAL VA INKLYUZIV TA'LIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 73–80. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70712>
44. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Yuldosheva, F. (2025). TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. *Modern Science and Research*, 4(2), 81–91. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70714>
45. Yuldosheva, F., Haqqulov, M., & Yarashova, M. (2025). QADIMGI TURKIY XALQLARDA “QUT” MAROSIMI XUSUSIDA. *Modern Science and Research*, 4(3), 132–136. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scienceresearch/article/view/72375>
46. Sayfutdinov, F. (2025). 1918-1920 YILLAR XALQARO MUNOSABATLAR TARIXIDA VERSAL – VASHINGTON KANFRENSIYALARINING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 1066–1073. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/68491>

47. Sayfutdinov F., & Sharipov D. (2025). CENTRAL ASIAN INTEGRATION: HISTORICAL DEVELOPMENT AND PROSPECTS. *Journal of Universal Science Research*, 3(1(Special issue), 300–304. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/65623>
48. Ilniyazovich, S. F. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TARIX FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.
49. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
50. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
51. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
52. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
53. Sayfutdinov F. (2024). ILLUMINATION OF THE SPIRITUAL LIFE OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN RESEARCH. *Journal of Universal Science Research*, 2(5), 441–452. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/34891>
54. Sayfutdinov F. (2024). MANG'IT AMIRLARI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI ME'MORCHILIK SOHASI RIVOJI. *Modern Science and Research*, 3(10), 620–629. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/45335>
55. Ilniyazovich, S. F. (2024). Historiography of Various Expeditions and their Results in the Regions Inhabited by Karakalpaks in the First Half of the 20th Century. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 159-165.
56. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). *Modern Science and Research*, 3(2), 1071-1073.
57. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE" RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 568-572.
58. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 179-183.

59. Xayrullayev, U. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION.
60. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSIYASI. Modern Science and Research, 3(12), 843-851.
61. Xayrullayev, U. (2024). TURK XOQONLIGI VA ARABLAR BOSQINI DAVRIDA O'RTA OSIYO HOKIMLIKLARINING MAVQEYI. Modern Science and Research, 3(12), 339-343.
62. Xayrullayev, U., Sayfutdinov, F., & Rahmonova, S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. Modern Science and Research, 4(1), 147-154.
63. Xayrullayev, U. (2025). BUXORO VILOYATINING IQTISODIY HOLATI (1990-1991 YILLAR). Modern Science and Research, 4(1), 1018-1024.
64. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
65. Xayrullayev, U. F. (2023). 1918-1939 YILLARDA POLSHANING ICHKI SIYOSATIDAGI O 'ZGARISHLAR. SCHOLAR, 1(28), 337-340.
66. Xayrullayev, U. (2025). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO VILOYATIDAGI IJTIMOIIY HOLAT. Modern Science and Research, 4(2), 1186-1193.